

KOREYS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHNING TARIXI

Sh. Mirzayev¹, Lee Young man²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada koreys tilini o'qitish usullari, samarali pedagogik yondashuvlar va til o'rganishda duch kelinadigan qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv, audiovizual vositalardan foydalanish va interfaol dars metodlari koreys tilini o'zlashtirishga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Shuningdek, maqolada grammatikani tushuntirish va talaffuzni shakllantirish bo'yicha eng samarali texnikalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: koreys tilini o'qitish, til o'rganish metodikasi, kommunikativ yondashuv, audiovizual vositalar, interfaol darslar, grammatika o'qitish, talaffuzni shakllantirish, madaniy kontekst, amaliy mashg'ulotlar, xorijiy til pedagogikasi.

Koreys tili chet tili sifatida o'qitilishning ilk bosqichlari xalqlarning o'zaro aloqalari rivojlanishi va chet elliklar bilan aloqa qilish natijasida vujudga kelgan. Shuning uchun koreys tili aynan qaysi davrdan o'qitilish boshlanganini aniq bilish qiyin. Biroq, yozma manbalarga ko'ra, u hech bo'lmaganda Silla qiroli Seongdeok davriga borib taqaladi. Yaponiyaning bazi manbalarida Koreya davlati va koreys tilini o'rgangan bazi yoshlar haqida manbani ko'rish mumkin.

Keyinchalik, Yaponiyada, 1720-yilda, konfutsiy nazariyasi bo'yicha olim Yumori koreys tili maktabini tashkil etishni taklif qildi va 1727-yilda ushbu maktabni joriy qildi. Bu koreys tili bo'yicha tashkil etilgan birinchi ta'lim muassasasi bo'lsa kerak. Xitoyda Song sulolasidan bo'lgan F Cham-Hil koreys tili haqida o'z asarini yozgan, Min sulolasi davrida esa Goryeo va Joseon tillarini o'rganish imkoniyatini yaratgan maxsus qo'llanma nashr etilgan.

Biroq bundan keyin koreys tili ta'limida tizimli va keng miqyosda katta taraqqiyot bo'lmadi. Birgina Xitoy misolida qarasaq, 1922-yilgacha koreys tili bo'limiga ega bo'lgan atigi beshta universitet bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 40 ga yaqin ekanligi ma'lum. Yaponiya misolida qarasaq, diplomatik aloqalarni mustahkamlash davri bo'lgan 1960- yillarda koreys tilini chuqurlashtirib o'qitadigan universitetlarning soni beshtani tashkil qilgan bo'lsa bugungi kunda koreys tilini o'qitadigan universitetlarning soni 65 taga yetdi. Bundan tashqari, Avstraliya va Amerikaning HSC (High School Certificate) va SAT (Scholastic Assessment Test) II maktablarida koreys tili ixtiyoriy fan sifatida qabul qilingan. Shuning uchun bu mamlakatlarda koreys tili hatto boshlang'ich va o'rta maktablarda ham o'qitiladi. Shunday qilib, bugungi kunda koreys tili 50 ga yaqin davlatlarning 300 ga yaqin muassasalarda, jumladan universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarida o'qitilmoqda. Koreys tili bugunga kelib global o'rganish obyektiga aylandi.

Koreys tilini o'qitish tarixi mana shu davrlardan o'tadi. Biroq koreys tilini o'qitishning dastlabki davrlarida ta'lim tizimi jahon sdandartlari darajasiga mos bo'lmagan va o'quv dasturi yo'q, darsliklar ham yomon holatda bo'lgan.

Bundan tashqari, tizimda koreys tili ta'limiga mas'ul bo'ladigan o'qituvchilarni tayyorlaydigan ta'lim muassasasi yo'q bo'lgan. Koreys tili ta'limi uchun hech qanday o'qitish metodikasi ham ishlab chiqilmagan. Lekin mana shunday sharoitda ham koreys tilini bilish imtihoni o'tkazilayotgani quvonarli. Koreys tilidagi ta'lim endi rivojlangan mamlakatga xos bo'lishi kerak.

Sababi, koreys tili bugungi kunda butun dunyo e'tiborining mavzusiga aylanib bormoqda va koreys tilini o'qitish fuqarolik diplomatlari va madaniyat vakillarini tayyorlash, xorijiy davlatlarga malakaliy koreys tili mutaxassislarini tayyorlab berish lozim. Shu kabi chet elda koreys tilini o'qitish 130 yillik uzoq tarixga ega, ammo Koreyada koreys tili ta'limi bor-yo'g'i 40 yil atrofidagi tarixga ega xolos. Qolaversa, shuni aytish mumkinki, aynan 1980-yillarning oxirida koreys tilidagi ta'lim va tadqiqotlar to'g'ri muvozanatlasha boshlagan. Shunday ekan, koreys tilini o'qitish metodikasi shu paytgacha tizimli ravishda amalga oshirildi, deyin qiyin. Hatto yomon ta'lim sharoitlarida ham, u bir nechta koreys tilshunoslari, mutaxassislari va ta'lim sohasidagi o'qituvchilarning say-harakatlari bilan arang saqlanib qolgan deb baholanadi. Shu bois Koreyadagi asosiy koreys tili ta'lim muassasalarining hozirgi holati va dolzarb sharoitlariga nazar tashlasak, koreys tili ta'limining

¹ *Mirzayev Shukurullo Abduqodir o'g'li, Samarqand davlat chet tillar instituti Koreys filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi*

² *Lee Young man, Samarqand davlat chet tillar instituti Koreys filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi*

bugungi holati va unga asoslangan rivojlanish metodikasini topish mumkin. Qolaversa, koreys tili ta'limining nazariy asosi deyish mumkin bo'lgan tadqiqotlarning bugungi holatini davrlar bo'yicha o'rganib, o'tmish va hozirgi sohalarida chuqurroq o'rganishga muhtoj bo'lgan tadqiqotlarning kamligini aniqlash mumkin bo'ladi.

1950-yillarda koreys ta'li o'qitilishi boshlanishida missionerlik, siyosiy ta'lim

va harbiy maqsadlar asosiy e'tibor berilgan, lekin oxirgi 60 yil ichida koreys tilini o'qitish va o'rganish maqsadlari butunlat o'zgardi. Til sevimli mashg'ulot, ya'ni, hobby sifatida, bundan tashqari chet elda o'qish va ishga joylashish kabi jihatlardan ilk davrdagi o'qish maqsadlaridan farq qiladi. Chet elliklarga ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun ko'plab til institutlari maxsus kurslarni taklif qilishni boshlashdi.

O'qish va akademik maqsadlarda koreys tilining qisqa muddatli maxsus kurslari va universitetlarga yo'llanma beruvchi kurslar tashkil qilindi. Biroq bu takliflar unchalik muvoffaqiyatli amalga oshmagan. Buning asosiy sabablarini koreys tilini o'qitish borasida ko'p ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmaganligi va o'qitish usullari va baholash tizimlari tilni o'qitishdagi to'rtta asosiy kompetensiyaga ajratilmaganligida ko'rish mumkin.

1950-yillarga qadar AQShda o'qish darslarida grammatik tarjimaga yo'naltirilgan mazmunni tushunish darslari ustunlik qildi. 1956-yilda Benjamin Bloom "Bloom taksonomiyasi" yaratadi va bu taksonomiya chet tilini o'qitishda ham joriy qilinadi. Bloom o'z taksonomiyasida bilish jarayonini oltita guruhga ajratdi. Bular bilish, tushunish, amalda qo'llash, tahlil qilish, sintez, baholash kabi kompetensiyalardir. Bloom ushbu texnologiyani ishlab chiqqanidan so'ng chet tilini o'qitish muammosini hal qilishda Qo'shma Shtatlardagi boshlang'ich va o'rta maktablarda o'qishni o'rgatish ancha yaxshilandi. Bu texnologiya Koreya ta'limida ham sinab ko'rish rejalashtirildi va koreys tili ta'lim tizimiga kiritilib o'qitishning Bloom texnologiyasi asosida darslar tizimli ravishda dastlab boshlang'ich va keyinroq o'rta kurslarda ham olib boriladi.

O'zbekistonda koreys tilini o'qitish o'tgan asrning oxirgi choragiga borib taqaladi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshida koreys filologiyasi kafedrasini tashkil etildi. Dastlab, u yapon filologiyasi kafedrasiga tarkibiga kiritilgan. 1992-yildan boshlab alohida kafedra sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistondagi koreys tilini rivojlantirishning dastlabki bosqichida milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyoj juda katta bo'lgan va bu muammo Koreya Respublikasidan maxsus ma'ruzalar o'qish uchun taklif qilingan "KOICA" tashkiloti volontyorlari hamda "Korea Foundation" fondi tomonidan taklif qilingan professor-o'qituvchilari yordamida bartaraf etilgan bo'lsa, hozirgi kunda bu masala o'zining to'liq yechimini topdi. Bugungi kundagi koreysshunoslarning asosiy qismini Toshkent davlat shaqshunoslik institutining dastlabki filologik bilimga ega bo'lgan bitiruvchilari tashkil qiladi.

2005-yili O'zbekiston davlat jahon tillar universitetida "Koreys filologiyasi" kafedrasiga asos solindi. 2006-yildan esa Samarqand davlat chet tillar institutida ham koreys tili ta'lim yo'nalishi ochildi va 2022-yildan mustaqil "Koreys filologiyasi" kafedrasini sifatida faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda koreys tili – O'zbekistonda eng mashhur xorijiy tillardan bittasi hisoblanadi. Koreya Respublikasi O'zbekistonda ta'lim sistemasini yangilash jarayoniga muhim hissa qo'shdi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash va koreys tilini o'qitish uchun barcha sharoitlar yaratilishida Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi, Koreya Respublikasining Toshkentdagi ta'lim markazi, Koreya ta'lim departamenti, Chet ellik koreyslar fondi, Koreya Foundeyshin, Xalqaro hamkorlik bo'yicha koreys agentligi (KOIKA), Koreysshunoslik akademiyasi, Osiyo madaniyati va taraqqiyoti instituti va boshqa ijtimoiy tashkilotlar, Koreya Respublikasining oliy o'quv yurtlari yaqindan amaliy yordam ko'rsatishmoqda. O'zbekistonda koreys tili qator oliy o'quv yurtlarida, jumladan, O'zbekiston jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Urganch davlat universiteti, Berdax nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti (KOIKA tashkiloti rahbarligida), Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Qarshi pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Namangan davlat pedagogika instituti, Andijon davlat universiteti, Angren viloyat pedagogika institutida o'qitilmoqda. [5]

Shu bilan birga Koreya Respublikasi tomonidan "Sejong" va "NewHope" kurslari ochilgan. O'zbekiston bo'yicha 158 turli kurs va markazlar (maktablar, kollejlar va oliy o'quv yurtlari, koreys madaniyat markazi qoshida kurslar va h.k.) da koreys tili o'qitilmoqda. Bugungi kunda 12 mingdan ortiq odam koreys tilini o'rganmoqda (2020-yilgi ma'lumot). 1992 yili Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi rahbarligida ochilgan Koreya Respublikasining Toshkent shahridagi ta'lim markazi O'zbekistonda koreysshunoslikni rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Koreya Respublikasi ta'lim markazi koreys tiliga ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quv adabiyotlari hamda zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlashda yaqindan amaliy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, ta'lim markazi koreys tili bo'yicha maktab o'qituvchilarining malaka oshiri- shlarida ham yordam ko'rsatmoqda, bunga har yili koreys tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlab o'tkaziladigan seminarlar yaqqol misol bo'la oladi. Seminarda Koreya Respublikasi nufuzli oliy o'quv yurtlaridan tashrif buyurgan professorlar ma'ruza qilishadi. So'ngi yillarda ta'lim markazi respublika oliy o'quv yurtlari bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'yishmoqda. Ta'lim markazida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan ochiq ma'ruzalar

o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Umuman olganda, Toshkentdagi ta'lim markazining asosiy maqsadi hozirgi kunda jahonda 15-o'rinni egallagan, millionlab insonlar muloqot qiladigan koreys tilini o'rganishda O'zbekiston xalqi uchun qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuning uchun ham taraqqiyot yo'lida olg'a siljayotgan jahon tillaridan biri kabi koreys tili har ikki davlat strategik manfaatlariga javob beradi, va koreys tilini o'rgatish masalalari O'zbekistonda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Валеев А.А., Кондратьева И.Г. Методические проблемы обучения иностранному языку в контексте межкультурной коммуникации // Иностранные языки в современном мире: информационно-коммуникативные технологии в контексте непрерывного языкового образования. Суббота. Материалы VII Международной научно-практической конференции / Под науч. изд. Ф.Л. Ратнер. 2014. С. 536-543.
- [2]. Гозалова М.Р. Проектная деятельность как один из способов развития коммуникативной компетентности // Служба в России и за рубежом. 2014 год. № 2(49). С. 89-97.
- [3]. Ильинова Е.В. Использование коммуникативного метода (игры) в обучении иностранному языку // Научные труды Кубанского государственного технологического университета. 2015. № 11. С. 338-343.
- [4]. Раптанова И.Н. Имитационная технология как эффективный метод обучения иностранному языку. Новое слово в науке и практике: апробация гипотез и результатов исследований. 2014. № 9. С. 31-36.
- [5]. Сахно Е.М., Логвина С.А. Психологические факторы, определяющие процесс обучения профессиональной лексике // Символ науки. 2016. № 4 2. С. 175-178.
- [6]. Спатар-Козаченко Т.И. Роль иностранных языков в формировании межкультурного и служебного пространства (на примере языков, на которых говорят в современной Испании) // Служба в России и за рубежом. Т. 9. 2015. № 2 (58). Стр 204-216.
- [7]. Шайхисломова Л.Ф. Ролевые игры на основе информационно-коммуникативных технологий в обучении диалогической речи студентов неязыковых вузов // Филологические науки. Вопросы по теории и практике. 2015 год. № 2-1 (54). Страницы 201-204.
- [8]. Баёнханова Ирода Фуркатовна Дискурсивно-прагматические характеристики статей, выражающих этикет общения (на примере корейского и узбекского языков) // ИДССР. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения: 03.04.2025).
- [9]. Баёнханова Ирода Фуркатовна Нутқий мулоқот одобини ифодаловчи мақоллар (ўзбек ва корейс тиллари мисолида) // IJSSR. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nut-iy-mulo-ot-odobini-ifodalovchi-ma-ollar-zbek-va-koreys-tillari-misolida> (дата обращения: 03.04.2025).
- [10]. Байонханова И.Ф. (2024 г.). Корейс ва узбек тилларида одоб-ахлоққа оид мақолларнинг бевосита ифодаланиш хусусиятлари. Материалы конференции: Развитие вашего исследовательского духа , 255-260. <https://doi.org/10.2024/wa4j2880>